



UMUMTALIM MAKTABLARINING BOSHLAG'INCH SINFLARIDA O'QUVCHILARNI MUSIQA FANINI O'QITISH METODIKASI

Xayrullayeva Gulruh Zavqiddin qizi

Erkin tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17413283>

ARTICLE INFO

Received: 1st October 2025

Accepted: 15th October 2025

Published: 22nd October 2025

KEYWORDS

musiqa ta'limi, metodika, estetik tarbiya, interfaol usullar, ijodkorlik, boshlang'ich sinf, milliy qadriyatlar.

ABSTRACT

Maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa fanini o'qitishning zamonaviy metodik asoslari, o'qituvchining pedagogik mahorati, musiqiy idrok va estetik tarbiyaning shakllanishida dars jarayonining ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari yoritilgan.

Kirish

Musiqa fani o'quvchilarning badiiy-estetik didini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda musiqiy tarbiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish kelajak avlodning estetik idroki va milliy o'zligini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik madaniyatini yuksaltirish zarurligi ta'kidlanadi.

Musiqa darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi. Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan va ba'zan bir-biriga singib ketgan bo'ladi. Musiqani tinglash jarayonida o'quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy-nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to'playdilar, ularda ayni vaqtning o'zida taxlil qilish malakalari shakllanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytishda qo'shiqchilik ovozi hamda musiqa tinglash qobiliyatining barcha komponentlari (yuqori tovush, ritmika, tovushlar uyg'unligi, tembr) rivojlanadi. Xor bo'lib qo'shiq aytish, bolalar musiqa asboblari chalish, musiqa ostida harakat qilish improvizatsiya (erkin ijod etish) jarayonida ijrochilik malakalarining rivojlanishi o'quvchilarni o'quv mashg'ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo'yadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ritmik eshituvini rivojlantirish, xalq qo'shiqlari orqali milliy qadriyatlarni singdirish uchun eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois, musiqa o'qituvchisi dars jarayonida zamonaviy metodika va innovatsion yondashuvlardan foydalanishi talab etiladi.

Asosiy qism

1. Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining maqsad va vazifalari:

Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi — o'quvchilarda musiqiy eshituv, estetik zavq, ijodiy faoliyat va badiiy didni rivojlantirishdir. Bu jarayonda quyidagi vazifalar muhim o'rin tutadi:

- musiqiy eshituv va xotirani shakllantirish;
- qo'shiq kuylash orqali nafas va ovoz madaniyatini o'rgatish;
- ritmik his-tuyg'uni rivojlantirish;
- milliy musiqiy merosni o'rganish orqali vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash;
- o'quvchilarda sahna madaniyatini shakllantirish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchi darslarni faqat nazariy emas, balki amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishi lozim.

2. Musiqa darslarining mazmuni va tashkil etilishi

Boshlang'ich sinflarda musiqa darslari quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

Qo'shiq kuylash – o'quvchilarning ovoz imkoniyatlarini inobatga olgan holda milliy va bolalar qo'shiqlarini o'rgatish.

Musiqa tinglash – o'quvchilarni turli janrlardagi musiqiy asarlar bilan tanishtirish va ular haqida suhbatlashish.

Ritmik harakatlar – musiqaga mos harakatlar, raqs va o'yin elementlarini qo'llash orqali ritmni his etish ko'nikmasini shakllantirish.

Cholg'u asboblari ijro – oddiy ritmik asboblarni yordamida musiqiy jo'r bo'lishni o'rgatish.

Bu yo'nalishlar orqali o'quvchilar musiqaning turli jihatlarini — ohang, ritm, kayfiyat va ifoda vositalarini tushunib boradilar.

3. O'qitish metodlari va innovatsion yondashuvlar

Musiqa darslarida o'qituvchi quyidagi metodlardan samarali foydalanadi:

Ko'rgazmali metod: musiqiy videolar, cholg'u asboblari va rasmlar orqali o'quvchilarda tasavvur hosil qilish.

Amaliy metod: qo'shiq kuylash, musiqiy o'yinlar va mashqlar orqali bilimni mustahkamlash.

Suhbat metodi: musiqiy asar mazmuni va kayfiyati ustida fikr almashish, o'quvchining estetik tafakkurini kengaytirish.

Interfaol metodlar: "Kuyni davom ettir", "Ritmni top", "Qo'shiq zanjiri" kabi o'yinli metodlar orqali o'quvchilarda faol ishtirokni ta'minlash.

Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham musiqa ta'limida muhim o'rin egallamoqda. Multimediya vositalari yordamida musiqiy asarlar, videokliplar va interaktiv topshiriqlar darslarni qiziqarli qiladi.

4. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuv

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin faoliyati orqali o'rganishga moyil bo'lganliklari sababli, dars jarayonida o'yin, harakat va ijodkorlik elementlariga ko'proq e'tibor berish lozim. Darsning davomiyligi, temp va ohang o'quvchilarning diqqatini ushlab turishga xizmat qilishi kerak. O'qituvchi har bir bolaning individual qobiliyatini inobatga olib, ularni rag'batlantirib boradi.

5. Musiqa o'qituvchisining roli

Musiqa o'qituvchisi — bu faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarda musiqaga muhabbat uyg'otuvchi, ularning ruhiy dunyosini boyituvchi shaxsdir. U darsda ijobiy psixologik muhit yaratadi, o'quvchilarning estetik didini rivojlantiradi, ijodkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchining badiiy didi, ovoz imkoniyati va pedagogik mahorati dars samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Musiqa darslari o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan maktabdagi boshqa fanlardan ajralib turadi. Musiqa bolalarning aqliy va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Badiiy tarbiya esa uning mantiqiy mazmunidir. Musiqa darsining ichki tuzilishi musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan - vokal-xor

mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iborat. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Yana musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohanglar vositasida ifodalanadi, musiqani faqat tinglabgina idrok etiladi. Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Ijro etilayotgan asarni musiqa sur'atiga sozlanib, uning har bir elementini anglab olib tinglanmasa asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun ham musiqa asarlarini qayta-qayta tinglanganda uning yangi badiiy qirralari ochilib boradi.

Musiqa darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi. Mazkur tamoyillar dars mazmuni, metodlari va darsning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. O'qitish jarayonining asosiy qonuniyatlari didaktik tamoyillarda o'zining aniq ifodasini topgan. O'qitish tamoyillari deganda o'qitish asosida yotadigan o'quv jarayoni va uning o'tkazishning butun jarayonini tashkil etish mazmuni, metodlari, shakllarining tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich qonunlarini tushunmoq kerak.

Tamoyillar o'rtasida o'zaro uzviy aloqa mavjud. Ulardan birining buzilishi o'z-o'zidan ikkinchisining buzilishiga olib keladi. Tamoyillardan o'qitish qoidalari kelib chiqadi. Qoidalar o'qituvchining ayrim usullari xarakterini belgilaydi va tamoyillarni amalga oshirishga olib keladi. Qoidalar faqat didaktika tomonidan emas, balki o'quv vaziyatiga tegishli bo'lgan xususiy metodikalar tomonidan ham ishlab chiqiladi.

Imiylik tamoyilini o'rganilayotgan materiallar hajmi hamda qiyinlik darajasining shug'illanuvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasiga muvofiq bo'lishi talabini anglatadi. Bu tamoyilni amalga oshirar ekan o'qituvchi musiqiy asar, faoliyat turlari, savolni o'rganish uchun zarur bo'ladigan vaqtni aniqlaydi. U o'quvchilarga tushinarli bo'ladigan yangi tushuncha, musiqiy iboralar hajmini, o'rganilayotgan faoliyat turlarini yoritish chuqurligini, amaliy ijro murakkabligini, o'qitish metodlarini belgilaydi.

Ilmiy bilimlarning tarixiy rivojlanishi qurshab turgan olam qonuniyatlarini kamroq tushunishdan yanada chuqurroq tushunishgacha ko'tariladi. Ilmiy bilimlar ilmiylik xususiyatini yo'qotmagan holda musiqa olamini har xil darajada tushuntirib berishi mumkin. Shuning uchun ham o'quv dasturida o'rganilayotgan musiqa asarlari o'quvchilarning yoshiga, ulami rivojlanish darajasiga qarab ko'proq yoki kamroq teranlik bilan izoxlab berilishi mumkin. Masalan, Davlat Madhiyasi barcha sinflarda o'rganiladi. Bu asarning ilmiy ta'rifi yil sayin chuqurlashib boradi. Madhiya o'rgatilishining birinchi bosqichida yuzakichilikka yo'l qo'ymaslik kerak.

Musiqa darsida o'qituvchining chalishdagi qo'l harakatlari, kuylayotgandagi yuz ifodasi va mimikasi, dirijyorligi, doskaga ilingan qo'shiq plakati, tovushlar baland-pastligini ifoda etuvchi grafik chiziqlar, tarqatma materiallar, mashq yozuvi ham ko'rgazmali vositadir, ammo u musiqa sadosi ko'rgazmaliligiga yordamchi, ikkinchi darajali vositadir, Buni shu bilan isbotlash mumkinki, musiqani ko'zi ojiz kishi ham idrok etadi, ammo u tasviriy san'atni idrok etolmaydi, tabiat go'zalligini ko'ra olmaydi. U ulami musiqa ohanglarida tasavvur qilishi mumkin.

Darslar jarayonida asarlarning mazmuga mos rangli kartinalardan foydalanish asarining badiiy mazmunini aniq tasavvur etib idrok etilishiga yordam beradi. Ayniqsa klaviatura orqali musiqa tovushlarini chalib ko'rsatish dastlabki idrok malakalarini shakllanishida ahamiyatlidir. O'qitishning ko'rgazmaliligi tamoyilidan har tomonlama foydalanish o'quvchilar xissiy bilishining barcha jihatlariga rahbarlik qilishni, boshqarishni taqazo etadi.

Ko'rgazmali vosita sifatida musiqa asarining nota yozuvi, asarning ritmi yoki tempini aniqlashda foydalaniladigan grafik chiziqlar, musiqa ostidagi harakatlar, asar mazmuniga mos rangli rasmlar yoki ashyolar musiqa darsida namoyish qilib ko'rsatilishi mumkin. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida turli xil texnika vositalari: kino va boshqa proyeksiyon apparaturalar,

tovush yozish apparatlari va boshqalardan foydalanib namoyish qilish keng tarqalmoqda. Ko'rgazmali qurollar turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Ular bir holda faqat namoyish qilinadi. Ikkinchi holda esa abstraksiyani shakllantirish jarayonini yengillashtiradi. Ko'rgazmali qurollar yordamida vujudga keltiriladigan aniq hissiy obrazlarga tayanish abstrakf qoidalarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, bilimlarning tushunarlilik darajasini oshiradi. Masalan, nota haqida dastlabki tushincha berish paytida nota tayoqchalari, applikasiyalar, rasm xhizilgan kartonlar va hokazolardan foydalaniladi.

Xulosa

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa fanini o'qitish metodikasi o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Musiqa darslarida interfaol metodlardan, milliy musiqiy merosdan va zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Shuningdek, musiqa o'qituvchisining ijodiy yondashuvi, pedagogik mahorati va shaxsiy namunalari o'quvchilarning musiqaga bo'lgan muhabbatini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmuhammedov, M. U., & Karimov, O. T. (2020). Interfaol ta'lim texnologiyalarining musiqa o'qitishdagi o'rni. Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. Rasulov, A. A. (2019). Milliy cholg'u asboblari va ularning ijrochilik xususiyatlari. Toshkent: Akademiya nashri.
3. Karimov, O. (2021). Raqamli texnologiyalar yordamida musiqa darslarini tashkil etish. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.
4. Qodirov, A. S. (2018). Musiqiy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Худойбергенов, М. М. (2013). Шашмаком санъатининг ижтимоий-тарихий аҳамияти. Тошкент: Маърифат.